



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

TARBIYA JARAYONIDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Rashidova Gulnoza G`ulomovna

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali,dotsent(PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarbiya darslarini ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etishning pedagogic ahamiyati, uning o`quvchi shaxsini shakllantirishdagi o`rni va samaradorligini oshirish omillari yoritilgan. Oila va maktab hamkorligining mazmuni shakllari hamda natijalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari tarbiya darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so`zlar:** tarbiya,oila maktab, hamkorlik, ota-ona, o`quvchi,pedagogic jarayon, zamonaviy, yondashuv, ijobiy, qadriyat, emotsional.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОТРУДНИЧЕСТВА СЕМЬИ И ШКОЛЫ В ВОСПИТАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Рашидова Гулноза Гуломовна

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана,PhD доцент

Аннотация

В данной статье раскрывается педагогическое значение организации воспитательных занятий в сотрудничестве с родителями, их роль в формировании личности учащегося и факторы повышения их эффективности. С научно-теоретической точки зрения проанализированы содержание, формы и результаты взаимодействия семьи и школы. Результаты исследования направлены на повышение эффективности воспитательных занятий.

Ключевые слова: воспитание, семья и школа, сотрудничество, родитель, учащийся, педагогический процесс, современный подход, позитивные ценности, эмоциональное развитие.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF FAMILY AND SCHOOL COOPERATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Rashidova Gulnoza Gulomovna

Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan,PhD Associate Professor

Abstract

This article highlights the pedagogical significance of organizing upbringing lessons in cooperation with parents, their role in shaping the student's personality, and the factors that enhance their effectiveness. The content, forms, and outcomes of family-school cooperation are analyzed from a scientific-theoretical perspective. The research findings contribute to improving the effectiveness of upbringing lessons.

Keywords: upbringing, family and school, cooperation, parent, student, pedagogical process, modern approach, positive values, emotional development.

Bugungi kunda ta'lim tizimida tarbiya masalasi eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash nafaqat maktab, balki oila zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Ayniqsa, tarbiya darslarini ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etish oquvchilarning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishiga samarali ta'sir krsatadi.

Maktab va oila o'rtasidagi uzviy hamkorlik o'quvchining xulq-atvori, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar tarbiya jarayoniga faoljalb etilganda, o'quvchida mas'uliyat, intizom va mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Shu sababli bugungi ta'lim tizimida tarbiya darslarini ota-onalar bilan hamkorlikda olib borish dolzarb pedagogic muammo hisoblanadi.

Bolalarni tarbiyalashning zamonaviy amaliyotlari jamiyatda, turmush tarzida va texnologiyada sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aks ettiradi. Rivojlangan mamlakatlarda, shu jumladan, Rossiyaning ilg'or tarbiyaviy yondashuvlariga ko'ra o'quvchining kuchli tomonlariga e'tibor qaratish, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish va hayotga ijobiy nuqtai nazarni tarbiyalash muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv bolalarga o'zini o'zi hurmat qiladigan, stress va depressiyaga kamroq moyil bo'lgan muvaffaqiyatli kattalar bo'lib yetishish imkonini beradi. Tarbiya darslarining mazmuni nafaqar insoniy fazilatlar va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish shu bilan bir qatorda ijtimoiy faol hamda hayotda o'z o'rnini topa oladigan baxtli shaxslarni tayyorlashdan iboratdir.

O'quvchilarni hayotdan mamnun, ezgulikka intiluvchan, ijobiy emotsioanal, g'ayratli, pozitiv fikrlovchi qilib tarbiyalashda ota onalar bilan hamkorlikda tarbiya darslarini tashkil etish ijobiy samara beradi. Tarbiya darslarida o'yinga asoslangan strategiyalar ota-onalarning bolalari bilan muloqot qilish va ta'lim olish uchun vosita sifatida foydalanish imkonini beradi. Bu usul o'quvchining ruhiy jihatdan sog'lom rivojlanishiga hissa qo'shadi, kognitiv qiziqishini oshiradi va oilada o'zaro ishonch hissini mustahkamlaydi. Ijobiy emotsionallikka va pozitiv fikrlashga ega bo'lgan ota-onalar o'zlarining his-tuyg'ularini tushunadilar va boshqara oladilar. Bu ularga farzandlari bilan ochiqroq va yaqin munosabatda bo'lishga va farzandlarining ehtiyojlari va muammolarini tushunish va to'g'ri yechim topish imkonini beradi. Oiladagi bunday yondashuv o'quvchining his-tuyg'ularini tartibga solish, o'z tajribasi va ehtiyojlarini boshqalar, jumladan oila kattalari bilan bo'lishish, ijtimoiy ko'nikmalarni faol rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Zamonaviy ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ko'plab ota-onalar ota-onalik mas'uliyatini bajarishda zarur bo'lgan nazariy bilim va amaliy tajriba bilan yetarli darajada qurollanmagan. "Oilaviy tarbiya madaniyatining sustligi, pedagogik kompetensiyalarning yetishmasligi, shuningdek, zamonaviy jamiyatning tezkor o'zgarishlari natijasida yuzaga keladigan yangi chaqiriqlarga tayyorgarlikning pastligi farzandlar tarbiyasida muayyan bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, tarbiya darslarini samarali tashkil etish faqat o'quvchilarning odob-axloq va xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish bilan cheklanmay, balki ota-onalarning pedagogik va psixologik tayyorgarligini oshirishning ham muhim vositasi sifatida qaralishi lozim." [76]

Hamkorlik asosida o'tkaziladigan tarbiya darslari ota-onalarga oilaviy munosabatlarni boshqarish, bolalar bilan sog'lom kommunikatsiyani yo'lga qo'yish, ularning emotsional ehtiyojlarini to'g'ri anglash va qondirish borasidagi ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qulay maydon yaratadi. Bu jarayon ota-onalarni nafaqat farzand tarbiyasining ishtirokchisi, balki to'laqonli hamkor, mas'uliyatli sherik sifatida shakllantiradi. Darslarda muhokama qilinadigan mavzular – oila ichidagi ro'llar va mas'uliyatlar, axloqiy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazish, nizolarni konstruktiv yo'l bilan hal qilish, ijtimoiy-emosional intizomni rivojlantirish – ota-onalarning pedagogik madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tarbiya darslarining hamkorlik shaklida tashkil etilishi ota-onalarning o'z tajribalarini almashish, bir-biridan o'rganish, muvaffaqiyatli oilaviy strategiyalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa ularni oilaviy munosabatlarni samarali boshqarishning psixologik va pedagogik mexanizmlari bilan tanishtiradi, oilaning ijtimoiy institut sifatidagi funksional salohiyatini mustahkamlaydi.

Ota-onalar bilan birgalikda o'tkaziladigan tarbiya darslari — bu ikki tomonlama yutuq demakdir. Birinchidan, bolalar odob-axloq, jamiyat oldidagi mas'uliyat va to'g'ri xulq-atvorni o'rganadi. Ikkinchidan, ota-onalar farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini oshirib, bu jarayonning shunchaki kuzatuvchisi emas, balki ongli ishtirokchisiga aylanadi. Shunday ekan, bu hamkorlik bolaning ma'naviyatini boyitish bilan birga, oiladagi tarbiya usullarini ham zamonaviylashtiradigan muhim strategiyadir.

Bu hamkorlik yanada samarali bo'lishi uchun maktab psixologi juda kerak. Psixolog nafaqat o'quvchilarning ruhiy tinchligini ta'minlaydi, balki ota-onalarga oilaviy muammolar va kelishmovchiliklarni yechishda amaliy yordam beradi. Tarbiya darslariga psixologik maslahatlarni qo'shish — bu ota-onalarning bilimini oshirish va oiladagi tarbiya sifatini yaxshilashning ajoyib usulidir.

Bugungi global ta'lim tajribasi shuni ko'rsatadiki, "ruhiyat orqali ta'lim" tarbiyaviy faoliyatsi shaxsning butunligini anglash, uning hissiy-intellektual salohiyatini uyg'un rivojlantirishni ko'zda tutuvchi insonparvarlik paradigmasiga asoslanadi. Bu yondashuv o'quvchi, ota-ona va pedagog o'rtasidagi muloqot va hamkorlikni yangi bosqichga ko'taradi, tarbiyaviy faoliyatni faqat qoidalarga asoslangan nazorat jarayoni sifatida emas, balki ruhiy qo'llab-quvvatlash, empatiya va konstruktiv yechim topishga yo'naltirilgan pedagogik tizim sifatida ko'rishga imkon beradi.

Shu nuqtai nazardan, tarbiya darslarida psixologning ishtiroki ota-onalarga o'z oilaviy strategiyalarini qayta ko'rib chiqish, bolalarning emotsional ehtiyojlarini anglash, stressli vaziyatlarni konstruktiv tarzda hal qilish bo'yicha zarur ko'nikmalarni hosil qilish imkonini beradi. Psixolog tomonidan taklif etiladigan diagnostik va konsultativ metodlar oila a'zolarining o'zaro munosabatlaridagi yashirin muammolarni aniqlash va ularni ijobiy yo'l bilan tartibga solishga yordam beradi.

Ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning birgalikdagi faoliyati tarbiya jarayonini yanada samarali va izchil qiladi. Bu hamkorlik o'quvchilarda sog'lom psixologik muhitni yaratish, ularning axloqiy, estetik va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida kamol topishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, ota-onalarning ruhiy-pedagogik savodxonligi ortib, ular farzandlarining tarbiyaviy ehtiyojlariga ilmiy asoslangan yondashuv bilan javob berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday integratsiyalashgan yondashuv zamonaviy ta'lim jarayonining insonparvarlik ruhiga asoslangan poydevorini mustahkamlashga xizmat qiluvchi dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida e'tirof etilishi mumkin.

O'quvchilarni pozitiv fikrlashga, ijobiy emotsionallikka va o'zlashtirilgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llashga o'rgatishda "ta'limdan – tarbiyaga" tamoyili alohida ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega. Bu tamoyil o'quv jarayonini faqat ma'lum bir mavzuni tushuntirish bilan cheklamay, balki har bir darsni tarbiyaviy imkoniyatlar bilan boyitishni nazarda tutadi. Bugungi globallashuv, tezkor axborot oqimi va raqamli texnologiyalar o'quvchilarning ruhiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ularda beqaror kayfiyat, tez ranjish, jizzakilik va stress holatlarining kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois o'qituvchi va ota-onalarning o'quvchiga bo'lgan munosabati ayniqsa e'tiborli bo'lishi talab etiladi.

Ota-onalar bilan hamkorlikda tarbiya darslarini tashkil etishda pedagoglardan o'z kasbining fidoyisi va jonkuyari bo'lishi talab etiladi, chunki tarbiyaviy faoliyatning mazmuni faqat dars jarayonidagi ishlarga emas, balki maktab va oilaning uzviy hamkorligiga tayanadi.

Bunda ota-onalar bilan muntazam aloqani ta'minlash uchun yaratilgan ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Ammo bunday guruhlar faqatgina dars jadvali, fanlardan o'zlashtirish holati, darslardagi ishtirok yoki boshqa tashkiliy ma'lumotlarni yetkazish bilan chegaralanib qolmasligi lozim. Shu ma'noda, onlayn platformalarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar ota-onalarga o'z farzandlarining shaxsiy rivojlanish jarayonini chuqurroq tushunish va unga ongli yondashish imkoniyatini beradi. Masalan, tarbiya fani bo'yicha o'rganilayotgan mavzular yuzasidan qisqa metrajli videomateriallarni tayyorlab, ularni ota-onalarga taqdim etish, ushbu mavzularni bolalar bilan birgalikda muhokama qilish imkoniyatini yaratadi. Bu nafaqat ota-onalarning tarbiya fani bo'yicha tushunchalarini kengaytiradi, balki ular farzandlari bilan birgalikda faol o'rganish jarayonida qatnashish orqali pedagogik hamkorlikning sifatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya darslarini ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. Bunday hamkorlik o'quvchining shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga, unda ijobiy xulq-atvor, mas'uliyat, intizom va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Ota-onalar va o'quvchilar o'rtasidagi uzviy aloqa o'quvchini yaxshiroq tushunish, uning qiziqishlari va muammolarini o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Natijada tarbiya jarayonida yagona talab va yondashuv shakllanadi. Bu esa o'quvchining maktabdagi oiladagi tarbiyasi o'rtasida uyg'unlikni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari. Barkamol avlod tarbiyasi masalalari.
2. N.S.Saidahmedov Pedagogika nazariyasi.-Toshkent, 2018.
3. G.X.To'xtayeva. Oila pedagogikasi.- Toshkent-2020.
4. O.Maxmudov. Farzandnoma.-Toshkent, 2020.
5. B.Umarov. Tarbiya nazariyasi va amaliyoti.-Samarqand, 2019.
6. Care E., Kim H., Vista A., Anderson K. Education System Alignment for 21st century skills: Focus On Assessment. — Brookings institution, 2018.
7. Gordon.T. Parent Effectiveness Training. —New York: Three Rivers Press, 2000.